

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI²²

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

O'ZBEK QISSANA VISLIGIDA URUSH MAVZUSI TALQINI

Ergashov Bekzod Jahongir o'g'li

Sirdaryo viloyati Guliston tumani

21-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Urush mavzusidagi nasriy asarlarda insonlarning ma'naviy qiyofasi ko'rsatilishi, murakkab xarakterlar yaratilishi ham o'ziga xos mazmun kasb etdi. Ayniqsa, prozaik asarda yetakchi qahramonning turfa evrilishlarini, ruhiyatini, kechinmalari ifodasini dramatik va tragik vaziyatlarda yaqqolroq ifodalash yozuvchilardan katta mahorat talab etadigan jihatlardan ekanligi sir emas.

Urushda bevosita ishtirok etmagan ijodkor undagi voqelikni o'z tasavvuri doirasida, fantaziyasini ishgga solibgina tasvirlay oladi. Shu ma'noda aynan front tasviriga bag'ishlab yozilgan nasriy asarlar istiqlol yillarida juda kam yaratildi. Lekin front orti hayoti tasviriga bag'ishlangan asarlar soni salmoqli darajada. Ularda urush tasviridan ko'ra uning insonlar taqdiriga qilgan fojeali oqibatlarini ko'rsatish kuchliroqdir. Ya'ni, urush tugagan bo'lsa-da, uning insonlar hayotida qoldirgan izlari, taqdiridagi qora chiziqlari yoki tinch hayotiga solgan soyasi tavsifi, murakkab psixologik holatlar ifodasi orqali yozuvchilar mahorati tufayli amalga oshirilgan asarlar anchagina.

Bular jumlasiga Nurali Qobulning "Bug'doy pishig'iga yetmaganlar" nomli qissasini kiritish mumkin. "Bu asarda u o'tgan avlod vakillarining urushning jang maydonlaridan juda uzoqlardagi og'ir, boshqacharoq aytganda, "pardozlanmagan" oqibatlarini ko'rsatishga intilgan. Unda urush odamlarga cheksiz musibat, qurbanlar bilan birga yana boshqa chidash qiyin bo'lgan qator tashvishlar, azob-uqubatlar keltirishi haqida gap ketadi. Qissa qahramonlarining taqdiri misolida urushning jang maydonlaridan olis joylardagi dahshatli oqibatlaridan biri – ocharchilik balosi haqida kitobxonga tasavur berishga harakat qilinadi". Haqiqatan ham ushbu qissa Nurali Qobulning front orti hayoti aks ettirilgan qissalaridan biri bo'lib, undagi voqelik asosan, Sangzor vohasidagi ocharchilik yillaridagi hayotni qamraganligi bilan ajralib turadi. Qissa yosh qahramon o'n yashar bola Anvar tilidan hikoya qilingan bo'lib, yozuvchi uning rakursi doirasidagi foje voqelikni ko'rsatib berishga harakat qilgan. Qissadagi voqealar yuqorida ham tilga olinganidek, ocharchilikning insonlar hayotini qay tarzda izdan chiqarishini ko'rsatishga qaratilgan. Bu holat ifodasi uchun yozuvchi anchagina bugungi kun uchun dahshatli bo'lib ko'rindigan hayotiy voqealarini ko'rsatishga urinadi. Xususan, bunga yozuvchining mehnatkash, halol va oilaparvar inson bo'lgan Haqberdi polvonning taqdirini ko'rsatishini misol qilish mumkin. Umrining aksar qismi dalada o'tgan bu insonning hukumat mas'ullariga aytgan to'g'ri so'zlari yoki haqiqatni so'zlagani uchun dahshatlarga duchor etilishi, uning militsioner tomonidan olib ketilishi, mehnat bataloniga jo'natib yuborilishi, uyda qolgan xotini va bolalarining ochlikdan chekkan azoblari, xotinining halok bo'lishi, uyda qolgan besh norasidalari esa etimxonaga topshirib yuborilishi kabilar shular jumlasidan. "Yozuvchi mana shu yo'nalishdagi tasvirni ancha izchillik bilan davom ettiradi, kitobxonni urushning bu dahshatli, odamlar hayotini izdan chiqarib yuborgan hodisasining bundan ham dahshatliroq qirralari bilan tanishtira boradi. Urush, u keltirib chiqargan qahatchilik ba'zi g'alamis kimsalarning o'z foydalari, manfaatlari uchun o'ta murakkab sharoitni battar murakkablashtirib yuborganligi odamlarni karaxt, alamzada bir-biriga bemehr qilib qo'yadi". Adabiyotshunos olimning ushbu fikrlari qissadagi yana bir dahshatli epizod – Adburahmonning qishloq omboridan yarim pudcha bug'doyni o'g'irlaganligi uchun rais boshliq bir guruh uning odamlari tomonidan kaltaklab o'ldirilishi, uning xotini Biypar va to'rt bolasining chirqirab faryod

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI²³

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

solistlariga hech kim e'tibor qilmaganligi, yuqoridagi fikrlarning isboti deyish mumkin. Lekin hamma ham loqayd, hamma ham toshbag'ir emasligini yozuvchi Erali tegirmونчи tilidan beradi: "Insofini it yeganlar! To'rt bolani ko'z oldimizda etim qilishdi-ya! Frontda o'layotganlarning yetimlari yetmasmidi sen noinsoflarga! Ko'zimiz o'lgan qo'yning ko'zidek bo'lib qarab turdik-a! Xayf-e!" Mana shu kabi qahramonlarning nutqi orqali yozuvchi asardagi o'zligini, ma'naviyatini hali yo'qotmagan kimsalar ham bor ekanligini, odamlar butunlay vahshiylashib ketmaganligini, kelajakka umid bilan yashayotganlar ham bor ekanligi ko'rsatadi.

"Bug'doy pishig'iga yetmaganlar" qissasi voqealari bugungi "omon-omon" zamonda yashayotgan yoshlар uchun ertakdek tuyulishi tabiiy. Chunki non anqoning urug'i bo'lган, bug'doy yoki uning uni eng qimmatli ne'matlar hisoblangan o'sha davrda insonlarning farzandlari ochidan o'lmasligi uchun har ishga tayyor ekanligi, xususan, o'g'rilik qilganligi – yarim pudcha bug'doyni o'g'rilaqanligi uchun boshqa insonlar tomonidan kaltaklanib o'ldirilishi, haqiqatdan yiroqdek ko'rinishi mumkin. Lekin bu holatlar ifodasi inson uchun eng og'ir damlarda insoniylikni yo'qotmaslik kerakligidan ogohlantirayotgандек tuyuladi.

Asar sarlavhasi ham kitobxonlarni o'ziga jalg'eta oladi, unda insonlarning foje taqdiriga ishora yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu haqida boshqa tadqiqotlarda ham so'z yuritilgan, xususan: "Bug'doy pishig'iga yetmaganlar" sarlavhasidagi milliy ruh, mazmunida anglashilgan fojeiylik bilan to'qnashib mohiyatan kontrastlik hosil qilgan. Aynan ana shu kontrastlikning o'ziyoq asarning birinchi jumlasidagi "sukunat" obrazini moddiylashtirgандек go'yo... Asarda aks etgan hayot manzaralari, muhit qiyofasi, insoniy taqdirlar, davr ziddiyatlari qissaning ilk jumlasidayoq yarq etib ko'zga tashlanadi". Darhaqiqat, adib asarda kompozitsion unsurlardan biri bo'lган peyzaj – tabiat tasviridan ham unumli foydalanadi. Voqealar yuz beradigan makon va zamonni kitobxon ko'z o'ngida yaqqolroq namoyon qilish uchun unga mos va xos bo'lган tasvirni mahorat bilan chiza bilgan: "Borliq oppoq va qo'rquinchli sukunat og'ushida. Hududsiz kengliklar, ko'z ilg'aydigan neki bor, hammasi oq, oppoq. Qisqa va sertashvish kunduzlar ham yurakka vahm soluvchi, g'oyat cheksiz tuyuladigan bu sukunatni buzolmas edi. Oyqorning bebosh Toshoxur shamoliga ko'krak tutgan, bulutlarga sanchilib turgan cho'qqilarni ham qalin qor bosdi. Izg'irin muzlikka aylangan qoyalarni yalab-yulqab chiyillar, jarliklar tepasida qor quyuni o'ynardi". Mana shu zaylda asarning boshlanishi ham o'sha davr ruhiyatini, ham bo'lajak dahshatli voqealar oldidagi vahshatni, ham hikoyachi qahramon bo'lган o'n yashar Anvarning qalbida urushning qo'rquinchlari tufayli kechayotgan talotumlarni ko'rsatib berishga harakat qilingan. Demak, ushbu peyzaj tasvir o'z vazifasini bajara olgan.

"Yozuvchi "Bug'doy pishig'iga yetmaganlar"da front orti hayoti manzaralariga murojaat qilar ekan, urush davrining shafqatsiz haqiqatlaridan biriga – ocharchilik va u tufayli insonlar a'moli va amalidagi evrilishlar, aynashlar, og'ishlar tug'dirgan fojialardan so'zlaydi. Urush yovuzlik va kulfatlar doyasi. Yozuvchi "Bug'doy pishig'iga yetmaganlar"da kichik bir O'smat qishlog'i odamlarining urush davri hayoti misolida ocharchilik balosining so'ngsiz iztiroblarini, g'am-u tashvishlarini katta bir insoniy dard bilan aks ettiradi". Ocharchilik tufayli insonlarning yovuzlashishi, o'z insoniy qiyofasini yo'qotishi, bir burda don yoki bir kaft un uchun odamgarchilik chegaralirini buzib, yovuzlashishi yoki chin insoniy xislatlarni yo'qotib, o'z vijdoniga qarshi qilmishlarni bajarishi ushbu asarda yorqin aks ettirilganligi qissa matni bilan tanishgan har bir kitobxonni larzaga soladi.

Hali bolalik davrida bo'lган Anvar hayot qiyinchiliklarin ko'rib, tez voyaga yetadi, ya'ni onasining farzandlar tashvishida azoblanayotgani, choraszizlikdan iztirobdaligi, atrofidagilarning ayanchli hayot tarzi uning tez ulg'ayishiga sabab bo'ladi. "Anvar

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI²⁴

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

onasining g‘amgin nigohidan ana shu o‘n kundan keyingi tashvish va tahlikani uqardi. Uyda non yopilmas, ancha vaqtadan beri xonodon tandirga yuk bo‘ladigan unni ko‘rmagandi. Arpa un tandirga ilashmasdi ham. Har tong uyg‘onganda kenja singlisi tushida ko‘p non ko‘rganini aytadi. – Non? Qay go‘rda? Qiz bolaning tushi teskari keladi. Bug‘doy pishig‘iga yetmaguncha emin-erkin non yeish qayda? – g‘amgin javob qiladi Sanam. – Bir amallab tut pishig‘iga yetganimizda edi...” Mana shunday hayot oddiy insonlarning kunlik tashvishi bo‘lsa, bu tomonda ular frontga ham oziq-ovqat yetkazdirishlari kerak. Ularni ta’minalash uchun qishloq dalalarida yetishtirilgan hamma narsa “davlat”ga topshiriladi. Balki “davlat” bahonasida boylik orttirish g‘amida bo‘lgan shaharlik tatar vakil, Ahmad omborchi, Xudoybergan rais kabi imonsiz, insofsiz rahbarlar nafsi qondirishi uchun go‘daklar ochdan o‘lib ketayotganligi ham qissada ta’sirchan tarzda tasvirlangan.

Umuman, o‘zbek adabiyotida ikkinchi jahon urushi davrida front orti hayotida yo‘l qo‘ylganadolatsizliklar, shafqatsizliklar boshqa ijodkorlarning ham asarlarida ko‘rsatib o‘tilganligi ma’lum. Xususan, O.Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa”, O.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari”, N.Eshonqulning “Urush odamlari” kabi asarlari shular jumlasidan. Xususan, “Ikki eshik orasi” romanidagi Umar zakunchi, “Dunyoning ishlari”dagi Dalavoy, “Urush odamlari”dagi Mirzaqul rais va “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasidagi Xudoybergan rais obrazlari tasviri va tavsiflarida, xarakter-xususiyatlarida o‘xshashliklar mavjudligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ulardagi umumiylilik, hammasining ham bemehr, toshbag‘ir, mansabparast, maishatparast va xudbinliklarida ko‘rinadi. Yozuvchi Nurali Qobul ham o‘z raisini xuddi shu xususiyatlarining mujassami aks ettirilgan tarzda yarata bilgan. Asarda bunday muvaffaqiyatli yaratilgan qahramonlar sirasiga qissadagi Sanam, Qo‘ysin xola, Erali tegrimonchi, Usmonali, Zuhra xola, Ahmad omborchi kabilarni ham kiritish mumkin. Xususan, Qo‘ysin xola obrazining murakkabligi shundaki, u o‘zi xohlamagan holda atrofidagilar qo‘shni bolalarning rizqi bo‘lgan o‘rik daraxtini kesib tashlaydi. Chunki mana shu daraxtga ham soliq to‘lashini talab qiladiganlar paydo bo‘ladi. Bu balki yozuvchi tomonidan bo‘rttirilgan tasvir bo‘lishi mumkin, lekin vaziyatning keskinligi, voqealar rivojidagi tragizmni oshirib ko‘rsatish uchun ham yozuvchi aynan mana shu epizoddan foydalana bilgan.

Adib bu qissadagi asosiy qahramonlardan bir bo‘lgan Sanam va uning qizi Karomatning portretlariini chizish orqali shu davr kishilarining qiyofalarini ko‘rsatishga erishgan. Xususan, “Ko‘zлari ichiga tortilib, homilador o‘roqchi juvonlardek ozib ketgan Karomat o‘zini chalg‘itish uchun uzzukun mayda-chuyda tashvishlar bilan ovora, ko‘z yoshlarini ichiga yutardi”, - deya Anvar ko‘zi bilan opasining och-nahor qiyofasi kuzatilsa, so‘nggi burda nonni, bir yalam atalani bo‘lsada bolalarim yesin, deya farzandlari uchun jon chekayotgan: “Onasining esa yuzlari so‘lg‘in tortib, kundan kun qoqsuyakka aylanib borardi. Daf‘atan qaragan kishining ko‘zi ayolning turtib chiqqan chakka suyaklariga va ikki chakkasidan oqarayotgan sochiga tushardi. Rangi o‘ngib ketgan kamzuli egnida xalvirab turar, ayolning bor saxti-sumbati ikki elkasidan iborat edi,” - deya tasvirlash orqali ta’sirchanlikni oshirishiga erishgan.

Nurali Qobulning “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi orqali ikkinchi jahon urushining insonlar, oddiy xalq vakillari boshiga solgan balo-yu ofatlari, dahshatlasiyoratlari aks ettirilgan. Birgina tog‘ qishlog‘i odamlarning urush tufayli chekkan iztiroblari, g‘am-alamlari, bir tomondan oila boquvchilari bo‘lgan turmush o‘rtog‘i, otasi, akasi va farzandidan qoraxat olayotganlar, beva qolgan ayollar, yetim bo‘lgan farzandlar, Anvar kabi tezda ulg‘aygan go‘daklar, ikkinchi tomondan ocharchilikdan omon qolish uchun kurashayotganlar, hattoki bir dona lavlagi uchun mushtlashib

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI²⁵

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

oqibatsizlik qilgan yaqin o'rtoqlar, quturib o'lgan xo'kiz yoki harom o'lgan qo'yning go'shtini egan odamlar, bolalarining qornini to'yg'azish uchun mushuk so'yib bermoqchi bo'lgan bevalar, yersovunni andiz deb yeb, shishib o'lgan odamlarning achchiq qismati ta'sirli qilib tasvirlangan. Ya'ni ushbu qissa orqali yozuvchi urushning insonlar uchun faqat fojealar oqimini keltirishi, uning ta'siri urush bo'lмаган hududlarda ham o'z dahshatlarini namoyon etishi, uning foje oqibatlari urush tugagandan keyin ham davom etishi, urushda g'oliblik tushunchasi bo'lmasligi, u ham qaysidir ma'noda ulkan talofatlar va yo'qotishlar evaziga amalga oshirilishi uchun ham urush hamma zamonalarda va hamma makonlarda qoralanishi xususidagi xulosaga kitobxонни оlib kelishi bilan ham ahamiyatli asarlardan biridir.

Adibning "Bug'doy pishig'iga yyetmaganlar" qissasida yozuvchi tanlagan mavzu insonlarning og'ir damlardagi ma'naviy qiyofasini ko'rsatib berishga qaratilgan. Lekin ba'zi o'rnlarda tasvirdagi izchillik yo'qolgan ayrim o'rnlar ham uchrab turadi, shuningdek, obrazlarning ham asosiy xarakterlarning biror jihatni ko'rsatilishiga daxldor bo'lмаган, yozuvchi g'oyaviy niyati amalga oshiriluvida xizmat qilmaydiganlari ham mavjud. Bu haqida dabiyotshunos olim Umurzoq O'ljaboyev shunday deydi:

"Urush davri hayotiga doir faktlar boru, lekin ular hamma o'rnlarda ham kitobxонни larzaga soladigan haqiqiy insoniy dramalar darajasiga o'sib chiqmagandek taassurot qoladi. Fikrimizcha, yozuvchi ijodiy niyatining ijrosida parokandlik mavjudddek, asar orqali aytmoqchi bo'layotgan gaplarni, shu orqali diqqatini ham ma'lum nuqtalarga to'plashda e'tiborsizlik bordek ko'rindi. Buni mo'jazgina bir qissadagi personajlar sonining ko'pligi ham ko'rsatib turadi. Unda 35 tacha personaj tilga olinadi. Ularning aksariyati asardagi voqealarning rivojida tuzuk-yuluq vazifani bajarmasdan, bir ko'ringanlari bo'yicha sahnadan tushib ketaverishadi". Personajlarning asar mazmunida ahamiyatsiz bo'lishi ularning ortiqcha ekanligini ko'rsatadi va bu holat asar saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qissaning yetakchi qahramoni bo'lgan Anvarning ham keyinchalik ikkinchi daradaga tushirilishi va kitobxon nigohidan uzoqlashtirilganligi ham, uning va oila a'zolarining ocharchilik davridagi og'ir hayot tarzi va asar so'nggidagi echimda ular haqidagi ma'lumotlar berilmasligi ham asar haqidagi fikrlarni tarqoqlashtiradi. Shunday bo'lsa ham qissaning hamma zamonalarda makonlarda uchun dolzarbligini yo'qotmaydigan urushning insonlar boshiga keltiradigan baloyu ofatlari tasviriga bag'ishlanganligi uning emotsiyalni ta'sir doirasini yanada kengaytiradi.

Qissadagi dahshatli voqelardan va rais, omborchi kabi salbiy qahramonlar qilmishlaridan bir narsani anglash mumkin, ya'ni insonlarning beoqibat, mehrsiz bo'ib ketishlariga davrning sharoitning ta'siri katta. Insonlar urush tufayli insoniylikdan ancha yiroqlashib qolganlar. Mana shular qissaning asosiy mazmunini tashkil etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., O'zbekiston, 2002. - 559 b.
2. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. T.: Muharrir, 2011.
3. O'ljaboyev U. Badiiy tasvirning haqqoniyligi. – Guliston, Ziyo, 2007, - 152 b.
4. O'ljaboyev U. Hikoyachilikda davr nafasii. – T., Turon zamin ziyo, 2016, - 256 b.
5. Sharafiddinov O.Iste'dod jilolari. – T., G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1976. - 229 b.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI²⁶

30-Sentabr

ANDIJON, 2024

6. Solijonov Y. XXI asr nasri manzaralari (mavzu, muammo va yechim) // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2011-yil. -№4. –B. 147-157.
7. Qobul N. Bo‘ri ovi. – T.: “Ijod-Press”, 2017.
8. file:///C:/Users/User/Desktop/bu-doy-pishi-iga-yetmaganlar-issasida-mu-it-va-inson-psihologiyasi.pdf
9. www.ziyouz.uz.
10. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/suvon-meli-elis-manro-zamonaviy-hikoya-ustasi>